

**"IPAK YO'LI" HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH UCHUN
INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISH**

Shukurov Farrux Toxirovich

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0007-5255-6720

farukhshukurov90@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Ipak yo'li" hududlarida turizmni rivojlantirish uchun innovatsion usullarni joriy etish va uning iqtisodiy jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, turistlarning o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir nechta innovatsion barqaror turizm shakllari keltirilgan.

Kalit so'zlar: barqaror turizm, innovatsiya, agroturizm, ekoturizm, ta'lif turizmi, antropogen muhit, turistik oqim.

**ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА
В РЕГИОНАХ «ШЕЛКОВОГО ПУТИ»**

Шукуров Фарух Тохирович

Международный университет туризма и
культурного наследия «Шелковый путь»

Аннотация. В данной статье описывается реализация инновационных методов развития туризма в регионах Шелкового пути и ее экономические аспекты. Также представлены несколько инновационных форм устойчивого туризма, призванных удовлетворить растущие запросы и потребности туристов.

Ключевые слова: устойчивый туризм, инновации, агротуризм, экотуризм, познавательный туризм, антропогенная среда, турпоток.

**IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE METHODS FOR THE DEVELOPMENT
OF TOURISM IN THE "SILK ROAD" REGIONS**

Shukurov Farukh Tokhirovich

"Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage

Abstract. This article describes the implementation of innovative methods for the development of tourism in the "Silk Road" regions and its economic aspects. Also, in order to meet the growing demands and needs of tourists, several innovative forms of sustainable tourism are presented.

Keywords: sustainable tourism, innovation, agrotourism, ecotourism, educational tourism, anthropological environment, tourist flow.

Kirish.

Hozirgi kelib turizm tarmog'i iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bo'ldi. 2023-yilgi turizm tashkilotining yillik hisobotiga ko'ra, turizm faoliyatining biznes hajmi neft eksporti, oziq-ovqat mahsulotlari yoki avtomobilarning eksporti hajmiga teng yoki hatto yuqori. Uning rivojlanishi turizm yo'nalishlari orasidagi diversifikasiya va raqobatning ortishiga muvofiq ravishda ortmoqda. Barcha davlatlar turist oqimini oshirishga harakat qilmoqda va bu albatta o'sha davlatlarga har tomonlama foyda keltiradi. Ushbu sohani rivojlantirish orqali mamlakatlar ishsizlik darajasini pasaytirishga, valyuta oqimini ko'paytishga, aholi daromadlarini oshirishga harakat qilmoqdalar. Turistlarning esa borgan sari ehtiyoj va talablari ortib bormoqda. Shuningdek, hozirgi kunga kelib ularda tanlov imkoniyati juda yuqori. Hozirgi kunga kelib, turizm tashkilotlarning asosiy maqsadi bu turistlarning ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi. Ushbu sharoitda turistlarni jalb qilishning yagona yo'li bu turizm sohasida innovatsiyani qo'llash hisoblanadi.

Inson paydo bo'lisi bilan innovatsiya ham paydo bo'ldi. Agar birinchi bosqichda aynan qiziqish innovatsiyalarga olib kelgan bo'lsa, biz bu yerda vaqt davomida inson tomonidan amalga oshirilgan ulkan kashfiyotlar haqida o'ylaymiz, bugungi kunda innovatsiya fenomeni butunlay boshqa narsa. Ammo maqsad bir xil qolmoqda. Yangilikni kashf qilish, yangi narsa yaratish yoki yangilash. Har bir insonda innovatsiya qobiliyati mavjud. Ammo juda muhim nuqtani ta'kidlash kerakki, innovatsiya orqali yechim yoki yutuqdan tashqari, uning ijobjiy ta'siri bo'lisi kerak. Vaqt o'tishi bilan insonni o'rabi turgan hamma narsa transformatsiyadan o'tadi. O'zgarishlarga, yangi strategiyalarni qo'llash orqali iqtisodiy o'sishga erishish, xususan katta kompaniyalarda ishlab chiqarish, texnologiya o'zgarishi va boshqalar haqida gap ketganda, katta qiziqish kuzatiladi

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsiya tushunchasini birinchi bo'lib belgilagan olimlardan biri Yozef Schumpeter (1934) bo'lib, u o'zining 1934-yilda nashr etilgan ishida innovatsiyani "ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyasi" sifatida ta'riflagan. Druker Piter (2000) esa o'z maqolasida shunday degan: innovatsiya tushunchasi nisbatan yangi bo'lsa-da, innovatsiya hodisasi ancha uzoq tarixga ega. "Innovatsiya - bu tadbirkorlik ruhining xos vositasi". 2000-yilda Yevropa Kenagashi tomonidan 2010-yilga qadar Yevropa Ittifoqini dunyodagi eng raqobatbardosh iqtisodiyotga aylantirish maqsadida yangi "Lissabon strategiyasi" (2000) qabul qilinadi. Oslo qo'llanmasining uchinchi versiyasi esa 2005-yilda innovatsiyani to'rtta kategoriya bo'yicha tasniflaydi: "mahsulot innovatsiyasi; jarayon innovatsiyasi; marketing innovatsiyasi; tashkiliy innovatsiya". Bu tasnifiyash innovatsiya jarayonini, mahsulotning to'liq o'zgarishi yoki yangilanishi bilan boshlanib, yangilangan jarayon yordamida bozorga yangi tarqatish kanallari orqali chiqarilishi, shuningdek kompaniya ichida qayta tashkil etilishi natijasida yakunda raqobatbardoshlikning oshishi mumkin bo'lgan jarayonni qamrab oladi (OCDE, 2005).

Esmann (2009) o'z maqolasida innovatsiyaning asosiy elementlari, innovatsiya jarayoni uchun zarur bo'lgan elementlar deb quyidagilarni aytgan: "tadqiqotlar va sinkronizatsiya, portfellar boshqaruvi, konsolidatsiya va foydalanish, jarayonlarni nazorat qilish va xavflarni boshqarish". Bilim va kompetensiyalar haqida gap ketganda, eng muhim qismlar quyidagilardir: kashf etish, assimilyatsiya va konsolidatsiya, asosiy kompetensiyalar va texnologiyalar. Tashkiliy qo'llab-quvvatlash. Esmann (2009) fikricha, u quyidagilardan iborat: "innovatsiyalar strategiyasi va liderlik, tashkilot va infratuzilma, atrof-muhit va qulay iqlim, resurslar va o'lchovlar. "Turizmdagi innovatsiya bu omon qolish majburiyati" deydi Sundbo va b. (2007). Har bir insonda innovatsiya qobiliyati mavjud. Ba'zan ehtiyoj insonni hayot darajasini yaxshilash uchun o'zgarishlar qilishga majbur qiladi.

Amerikalil olim Schumpeter (1983) "Iqtisodiy rivojlanish nazarayasi" maqolasida innovatsiyalarning quyidagi besh turini ajratib ko'rsatgan, ularning barchasi turizm industriyasida ham mavjud:

- yangi mahsulot yoki xizmatlarni yaratish (mahsulot va xizmatlar innovatsiyasi)
- yangi ishlab chiqarish jarayonlari (jarayon innovatsiyasi)
- yangi bozorlar (bozor innovatsiyasi)
- yangi etkazib beruvchilar (kirish innovatsiyasi)
- o'zgartirilgan tashkilot yoki boshqaruv tizimlari (tashkiliy innovatsiyalar).

Maykl Hall va Allan Wilyams (2008) o'z tadqiqotlarida innovatsiyalarni rivojlanadirishda davlatning roli katta ekanligini, u rivojlangan mamlakatlarga qaraganda endi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhimroq bo'lgan innovatsiyalarga asoslangan sanoat rivojlanishini ta'minlashi kerak deb aytib o'tishgan. Shuningdek, xususiy sektor tadqiqot va muayyan innovatsion yechimlarni ishlab chiqish xavfi bilan kurashish uchun kuchga ega emas deb yozishgan. Hukumatlar turizmda innovatsiyalarni yaratish jarayonida muhim rol o'yнaydi, chunki ular turizm bilan shug'ullanadigan tashkilot va muassasalar bilan birgalikda turizmning asosiy ishlab chiqaruvchilari va siyosatchilari hisoblanadilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishida tanqidiy yondashuv, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, qiyosiy taqqoslash, guruhash, kuzatish hamda statistik usullardan foydalanilgan

Tahlil va natijalar muhokamasi

Innovatsion barqaror turizmi shakllari turistlarning e'tiborini tortadi, ular noyob va haqiqiy dam olishni izlashadi. Bu shakllar mehmonlarning o'sib borayotgan talab va kutishlarini qondirish maqsadida, shuningdek, "Ipak yo'li" hududlarining barqaror rivojlanishini rag'battantirish uchun rivojlanmoqda. Mana bir necha misollar innovatsion barqaror turizmi shakllaridan:

1. Agroturizm - turistlar qishloq xo'jaligi ishlarida qatnashishi, mahsulot yetishtirish jarayonini o'rganishi va hatto hosil yig'ishda ishtiroy etishi mumkin. Bu ularni mahalliy aholi hayotiga yaqindan tanishtiradi va qishloq xo'jaligining qiymatini tushunishga yordam beradi.

2. Ekoturizm - tabiatni saqlashga e'tibor qaratish va turistlarni barqaror amaliyotlar bo'yicha o'qitish. Qishloq joylaridagi ekoturizm ekologik toza mehmonxonalarda yashashni, mahalliy flora va faunaga ekskursiyalar qilishni, tabiatni tiklash dasturlarida qatnashishni o'z ichiga olishi mumkin.

3. Gastronomik turizm - mehmonlarga mahalliy oshxonalar va kulinar an'analarni o'rganishni taklif qiladi. Bu mahsulot degustatsiyalari, kulinar master-klasslarda qatnashish va mahalliy bozorlarga mahalliy oshpazlar bilan tashrif buyurishni o'z ichiga olishi mumkin.

4. Sog'liqni saqlash va farovonlik turizmi - turistlar qishloq joylarida dam olish va kuchni tiklash uchun yashashi mumkin bo'lgan, yog'a, meditatsiya bilan shug'ullanishi, detoks dasturlarida qatnashishi yoki mahalliy o'tlar asosida davolovchi protseduralarda ishtiroy etishi mumkin.

5. Tematik va tarixiy turlar - tarixiy joylarga, qal'alarga, qadimiy qishloqlarga ekskursiyalar tashkil etiladi, bu turistlarga mintaqaning tarixi va madaniyatiga chuqurroq sho'ng'ish imkonini beradi.

6. Ekstremal sport va sarguzasht turizmi - faol turistlarni jalb qiladi, velosiped yo'llari, piyoda sayohatlar, ot ustida sayr qilish, rafting va boshqa faol dam olish turlarini taklif qiladi.

7. Madaniy ustaxonalar va hunarmandchilikni o'rganish - turistlarga mahalliy hunarmandchilikni, masalan, sopol ishlash, to'qish, sharob tayyorlashni o'rganish imkoniyatini beradi, bu esa madaniy merosni saqlashga yordam beradi.

Bu barqaror turizmi shakllari sayohatchilarining tajribasini boyitish bilan birga, mahalliy jamoalarning iqtisodiy rivojlanishiga, tabiat va madaniy merosni saqlashga yordam beradi. Barqaror turizmining rivojlanishi turli innovatsiyalar orqali o'tgan va davom etmoqda. Muaffaqiyatli innovatsiya "foydalanuvchiga katta foyda keltirishi, boylik yaratish qobiliyatini oshirishi, katta qiymat yoki qoniqish ishlab chiqarishi mumkin" (Друкер Питер, 2000).

Quyidagi jadvalda “Ipak yo‘li” hududlarda barqaror turizmining innovatsion shakllarini ko‘rishimiz mumkin:

1-jadval

“Ipak yo‘li” hududlarda barqaror turizmining innovatsion shakllari

Turizm shaklining nomi	Turistik faoliyat tavsifi (misollar)
Qishloq gastronomik turizmi.	O‘rganilayotgan hududdagi joylashuv ob‘ektlari tez-tez mahalliy oshxonalar tufayli talabga ega. An‘anaviy tayyorlangan taomlar yangi bo‘ladi va ishlatilgan ingredientlar tabiiy, qo‘srimchalarsiz.
Elit turizmi.	Joylashish ob‘ektlari mavjud bo‘lib, ob‘ektning bir qismi turistik maqsadlar uchun jihozlangan, bu yerda joylashgan turistlar maxsus ijtimoiy qatlamning hayotini tajriba qilish imkoniyatiga ega.
Korporativ turizm (jamoa birlashtiruvchi).	Ko‘plab kompaniyalar shunday dasturlarni tashkil etadilar, bu aslida malakali instruktorlar bilan malaka oshirish kurslaridir, ularning maqsadi jamoaviy ishni shakllantirish, xodimlarning mehnat unumdarligini oshirish va boshqalardir.
Ta’lim turizmi.	Maktablar doirasida 1-3 kunlik turli mavzularda (boshqa maktab, tabiatdagi maktab va h.k.) sayohatlar tashkil etiladi, ularning maqsadi bolalarni tanlangan mavzu bo‘yicha o‘qitishdir.
Oilaviy turizm.	Ko‘plab oilalarda zamonaviy turmush tarzi tufayli hafta davomida bolalarni tarbiyalash uchun vaqt yetishmaydi. Shuning uchun ular butun oila bilan shunday yig‘ilishlarda ishtiroy etadilar, maqsad ota-onalar ham, bolalar ham ta’lim olishdir.
Yovvoyi hayvonlarni kuzatish turizmi.	Yovvoyi hayvonlarni gid bilan va mos vaqtda kuzatish mumkin bo‘lgan jihozlangan joylar mavjud.
Ekstremal sport turizmi, peynrtbol.	So‘rov bo‘yicha turistlar tabiatda o‘ynashi mumkin bo‘lgan bunday uskunani (bo‘yoq sharlari bilan pnevmatik pistolet) taqdim etadigan kompaniyalar mavjud.
Zamonaviy elit turizmi	Bu asosan yaxshi moliyaviy ahvolga ega yoshlar orasida amalga oshiriladi. G‘oya quyidagicha: olomon qayerga borayotgan bo‘lsa, o’sha yo‘nalishga borish.

Barqaror turizmnı rivojlantirish uchun innovatsion usullarni o‘z ichiga olgan turli yondashuvlar va texnologiyalar qishloq joylaridagi turistik xizmatlarni yaxshilash va kengaytirish, turistlar uchun jozibadorlikni oshirish va barqaror rivojlanshni rag‘batlantirishga qaratilgan. Barqaror turizmini rivojlantirish usullarini takomillashtirish uchun, biz quyidagi vazifalarni qabul qilishimiz kerak:

1. Axborot texnologiyalarini raqamlashtirish: “Ipak yo‘li” hududlardagi joylarga turistik ob‘ektlar haqida ma'lumot beradigan interaktiv veb-saytlar va mobil ilovalar yaratish, onlayn-bronlash imkoniyatlari va qishloq joylariga virtual sayohatlar tashkil etish.

2. Noan‘anaviy turistik mahsulotlar ishlab chiqish: mahalliy fermer xo‘jaliklariga tashrif buyurish, qishloq xo‘jaligi ishlarida ishtiroy etish, mahalliy mahsulotlarni tatib ko‘rish bilan gastronomik turlar tashkil etish, ekoturizm va yovvoyi tabiatni kuzatishni turistik marshrutlarga kiritish.

3. Xizmat ko‘rsatish sifati va joylashuvni yaxshilash: mavjud joylashuv ob‘ektlarini modernizatsiya qilish va yangi qulay joylashuv ob‘ektlarini qurish, xodimlarni mehmondo‘stlik prinsiplari va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash bo‘yicha o‘qitish.

4. Doimiy marketing va targ‘ibot olib borish: qishloq turizmini jalb qilish uchun ijtimoiy tarmoqlar va raqamli marketingdan faol foydalanish, turistik ko‘rgazmalar va festivallarda ishtiroy etish.

5. Faol dam olish uchun infratuzilma yaratish bo'yicha tavsiyalar asoslash: piyoda va velosipedda sayr qilish uchun marshrutlar ishlab chiqish, piknik uchun joylar tashkil etish, sport va o'yin maydonchalari qurish.

6. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan va ekologik toza texnologiyalardan foydalanishni joriy etish: quyosh panellari, suv tozalash tizimlari va chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimlarini joriy etish orqali atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirish.

7. Mahalliy hamjamiyatni o'qitish va rivojlantirish: mahalliy aholiga turizm biznesini rivojlantirish bo'yicha seminarlar va treyninglar tashkil etish, turistik korxonalar va mahalliy aholi o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash orqali qishloq turizmini birlgalikda targ'ib qilish.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, "Ipak yo'li" hududlarda turizmini rivojlantirish uchun innovatsiyaning roli juda katta. Yuqorida sanab o'tilgan barqaror turizm shakllari va usullari mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga, yanada ko'proq turistlarni jalg qilishga sabab bo'la oladi. Bu esa o'z navbatida hududlarda barqaror itisodiy o'sishni taminlaydi. Barcha turizm va sayohat tashkilotlari uchun yangi innovatsiyalarni qo'llash, ularni nafaqat yanada samaraliroq qiladi, balki ularni raqobatda ustunlikni saqlab qoladi. Texnologiyadan foydalanish mijozlar tajribasini shaxsiylashtirish va mijozlar ehtiyojini qondirishni yaxshilash imkonini beradi, chunki muammolarni real vaqtida hal qilish mumkin. Bundan tashqari, texnologiya ko'plab bo'limlarda operatsiyalarni soddalashtirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida "Ipak yo'li" hududlarida turizmni yanada rivojlantirish uchun turli xil innovatsion barqaror turizm shakllari tavsiya etildi va jadval ko'rinishida tavsiflandi. Shuningdek tadqiqot davomida shu aniqlandiku, barqaror innovatsion turizmni rivojlantirishda davlatning roli juda katta. Bunda davlat tashkilotlari va turizm tashkilotlari bir birga ko'makchi bo'lishi kerak. Hukumat mahalliy tadbirkorlar va aholiga turli xil seminar va treyninglar tashkil qilishi kerak.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Essmann, H.E., (2009), Toward Innovation Capability Maturity, Ph.D. Dissertation, Stellenbosch

Lissabon strategiyasi (2000) yilning 23-24 martida Lissabonda Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan.

*Michael C. Hall & Allan M. Williams (2008). Tourism and Innovation. London, Routledge.
<https://doi.org/10.1080/14616688.2010.516403>*

OCDE (2005). Oslo Manual: Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data

Schumpeter, J. (1934). The Theory of Economic Development, Harvard University Press.

Schumpeter, J. A. (1983). The Theory of Economic Development, New Brunswick, NJ

Sundbo, J-Sintes, F.O.-Sorensen, F (2007) The innovative behaviour of tourism firms – Comparative studies of Denmark and Spain. Research Policy

Друкер Питер Ф. (2000) Инновации и предпринимательский дух. 192 стр.